

## ABU RAYHON BERUNIY: MARKAZIY OSIYO ILM-FANI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti instituti (tarix va mamlakatlar yo'nalishi) 2-kurs talabasilar*

**Shodiqulova Mehribon Ilgorovna**

*Mexribonilgorovna@gmail.com*

+998904787007

**Onorboyeva Sevara Otkir qizi**

*onorboyevasevara@gmail.com*

+99893 616 68 97

### **Maqolasi**

**Annotatsiya :** Mazkur maqolada buyuk alloma, ensiklopedik olim Abu Rayhon Beruniyning ilm-fanga qo'shgan beqiyos hissasi, uning asarlari, astronomiya, matematika, geodeziya, tarix, tibbiyat kabi sohalardagi ishlari haqida so'z yuritiladi. Maqolada asosan 2 ta manba asosida va yana qo'shimcha manbalardan foydalilanilgan va Beruniy ilmiz izlanishlari va qobiliyatlariga izoh va baho berilgan. Ya'ni maqolada asosan ikki asosiy manba — Aziz Qayumovning "Abu Rayhon Beruniy Ibn Sino" kitobi va Asror Obidovning "Abu Rayhon Beruniy" asari asosida olimning ilmiy qarashlari, shaxsiyati va tarixiy ahamiyati keng tahlil qilinadi. Qo'shimcha adabiyotlar asosida Beruniy asarlarining takrorlanmas jihatlari va bugungi ilm-fan uchun tutgan o'rni yoritiladi. Shuningdek, uning ilmiy qarashlarining zamonaviy fan rivojiga ta'siri yoritiladi. Maqolada Beruniyning ilmiy merosi tahlil qilinib, uning bugungi kundagi ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Abu Rayhon Beruniy, ilmiy meros, astronomiya, matematika, qadimgi Sharq, fan tarixi, Markaziy Osiyo, alloma.

Dastlab maqolada foydalilanilgan 1 chi manbadan foydalangan holatda Beruniy ilmiz izlanishlari va qobiliyatlariga izoh va baho bersak. Va muallif Aziz Qayumovning o'z kitobida allomaning yoritib berishiga izoh berisga harakat qilaman Aziz Qayumov o'z kitobida Abu Rayhon Beruniyni nafaqat o'z davrining buyuk allomasi, balki ilmiy tafakkurda inqilob yasagan mutafakkir sifatida ta'riflaydi. Muallif Beruniyni "fikrda mustaqil, diniy qarashlardan ozod, empirik bilim va tajribaga tayangan olim" deb baholaydi.

Bu yerda Beruniy oddiy olim emas, balki ilmni himoya qiluvchi ma'naviy kurashchi sifatida ko'rsatiladi. Kitobda Beruniy haqida: Uning fan va din o'rtasidagi tafovutga nisbatan betaraf, ammo ilm tarafdoi bo'lganligi, Hind falsafasi, qadimgi

yunonlar va musulmon olimlar qarashlarini tahlil qilganligi, Har qanday ilmiy masalaga sistematik, mantiqiy va eksperimental yondashuvi asosida ishlagani ko'rsatib beriladi.

Yangi ma'lumotlar va faktlar: Kitobda odatda Beruniy haqida kam yoritilgan yoki boshqa manbalarda uchramaydigan quyidagi qiziqarli va muhim faktlar e'tiborga loyiq: Beruniyning Ibn Sinoga nisbatan munosabati: Muallif ularning ilmiy fikrlari orasidagi farqlarni ochib beradi. Masalan, Beruniy tabiat hodisalariga tajriba orqali yondashgan bo'lsa, Ibn Sino ko'proq nazariy fikrlarni afzal ko'rgan. Bu esa o'zaro yozishmalarda ham seziladi.

Beruniy Yerni aylanma deb hisoblab, radiusini hisoblab chiqqani bu o'z davri uchun misli ko'rilmagan ilmiy yutuq bo'lganini muallif ta'kidlaydi. Beruniy har qanday ilmiy fikrni shubha ostiga olib, isbot talab qilgan. Aziz Qayumov bunga misol sifatida uning astronomik kuzatuvlarida erishgan natijalarini keltiradi.

Beruniyning ilmiy yondashuvlari: misol uchun dinga xolis yondashish, har qanday ilmiy fikrni tajriba bilan asoslash. Astronomiya, geodeziya, meditsina, tarix, madaniyatshunoslik, etnografiya u barchasini o'zaro bog'lab o'rgangan. Muallif quyidagi asosiy xulosalarga keladi: Beruniy – zamonidan ilgarilab ketgan ulug' zot. U fan asosida fikr yuritgan, tafakkur erkinligini qadrlagan olim sifatida o'z davrining eng yuksak namunasi bo'lgan. Beruniyning ilmiy merosi hozirgi kunda ham metodologik jihatdan qadrlanishi kerak.

Beruniyning shaxsiyati va ruhiy olamiga kirishga urinish: Aziz Qayumov Beruniy haqida gapirar ekan, uning ilmiy merosidan tashqari, uning shaxsiy fazilatlariga, ruhiy holatiga, izlanishdagi sabr-toqati, ichki intizomi va kuchli e'tiqodiga ham chuqur yondashadi. Bu jihat boshqa tarixiy-biografik manbalarda ko'p ko'rinxaydi.

Muallif ta'kidlashicha Beruniy ilm emas, balki fikr va tafakkurning hayotiy zarurat ekanini his qilgan kamyob zot edi." Kitobda muallif Beruniyda mavjud bo'lgan ilmiy jasorat tushunchasini alohida tahlil qiladi. Beruniy umumiy qabul qilingan, ammo ilmiy jihatdan shubhali qarashlarni rad etgan, bu esa uni zamondoshlari orasida ham qarama-qarshiliklarga olib kelgan.

Kitobda Beruniyning ilmga bo'lgan munosabati chuqur tahlil qilinadi. Ayniqsa, bilimga ega bo'lish emas, balki bilishga bo'lgan ehtiyoj va doimiy izlanish ruhi asosiy e'tiborga olinadi.

Muallif yozadi: "Beruniy uchun ilm - bu yakun emas, balki tugamaydigan yo'ldir."

Bu fikr bugungi zamonaviy ilm falsafasi bilan hamohang bo'lib, Beruniyni doimo o'z ustida ishlagan, hayotining har bir lahzasini ilmga bag'ishlagan olim sifatida ko'rsatadi. Beruniyning til tanlovi va ilmiy uslubi haqida original fikr:

Qayumov Beruniyning arab tilida yozishiga to‘xtalib, bu tanlov faqatgina diniy yoki siyosiy sabablar bilan emas, balki ilmiy auditoriyaga murojaat qilish istagi bilan bog‘liq ekanini aytadi.n Bu qarash ham kamdan-kam aytilgan nuqtadir. Chunki ko‘pchilik bu tanlovnin faqat "islom davlati uchun" deb izohlaydi, Qayumov esa ilmga xizmat qilish istagini asosiy sabab sifatida ko‘rsatadi.

Endi ikkinchi manbaga keladigan bo‘lsak bu manbada alloma haqida quyigacha ma’lumotlar keltirilgan. Asror Obidovning “Abu Rayhon Beruniy” nomli asarida boshqa manbalarda kam uchraydigan yoki o‘ziga xos tarzda tahlil qilingan qiziqarli faktlar va yondashuvlar mavjud. a) Beruniyning qadimiy tillarga bo‘lgan munosabati: Beruniy hind, yunon, fors tillarini o‘rganibgina qolmay, ularni madaniyatlararo tarjima vositasi sifatida ishlatgan. Muallif u yozgan “Hindiston” asaridagi hind donishmandlariga bo‘lgan hurmat va ularning diniy-falsafiy qarashlarini xolis tahlil qilishini alohida ta’kidlaydi. b) Geografiyaga oid ilg‘or qarashlari: Beruniyning Yer radiusini hisoblashda sferik trigonometriya qo‘llaganini batafsil ochib beradi.

Obidov ushbu yondashuvni zamonaviy ilmda ham dolzarb deb hisoblaydi.

c) Inson tafakkuri va erkinlik haqidagi qarashlari: Beruniy ilm erkinligi tarafdiri bo‘lgan, diniy dogmalarga bo‘ysunmagan. Obidov bu fikrni Beruniyning “ilmdan boshqa do‘srim yo‘q” degan iborasi orqali mustahkamlaydi.

Kitobdan Nimalarni o‘rganish mumkin: matematika, astronomiya, tarix, falsafa, etnografiya va geografiya. Ilmiy etikaga sodiqlik: shaxsiy manfaatdan ko‘ra, ilmiy haqiqatni ustun qo‘yish. Qadimiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish: Beruniy o‘zi bilgan manbalarni ko‘r-ko‘rona qabul qilmasdan, ularni tanqidiy ko‘rib chiqqan.

Asror Obidovning Beruniy haqidagi fikrlari va xulosalari: Beruniy faqat alloma emas, balki madaniyatlararo muloqotni rivojlantirgan ilmiy diplomat sifatida tasvirlanadi.

U ilm-fan orqali insoniyatni yaqinlashtirishni istagan. Muallif Beruniy ijodini bugungi yoshlar uchun intellektual ibrat maktabi deb ataydi. Obidov xulosasiga ko‘ra, Beruniy ilmini qadrlash nafaqat tarixiy hurmat, balki kelajak taraqqiyoti uchun ham zarur.

Bu fikrlarga kelishining asosiy sabablari: Asror Obidov quyidagilarga asoslanadi. Beruniy asarlarining mazmuniy chuqurligi va zamonaviy ilmga mosligi. Uning o‘z zamonasidan ilgarilab ketgan g‘oyalari: Yer aylanishi, vaqt zonalari, madaniy uyg‘unlik. Allomaning o‘ta muloqotga ochiq, fikr erkinligini qadrlagan olim bo‘lganligi. Uning ilmiy merosini xalqaro kontekstdan tahlil qilishi — bu muallifga kengroq qarash imkonini bergen.

Mo‘minov o‘z asarida Beruniyni ko‘proq metodologik jihatdan va falsafiy yondashuvi bilan o‘rganadi. U Beruniyni faqat tarixchi yoki astronom emas, mashhur metodolog, gumanist olim sifatida tasvirlaydi. Muallif Beruniyning “ilm tajribaga tayanmog‘i kerak”, “mushohada va aqliy tahlilsiz hech bir haqiqatga yetib bo‘lmas”

degan g‘oyalarini uning asarlaridan keltiradi. U Beruniyni ilk marta G‘arbiy Yevropa olimlari ilgari surgan ilmiy tahlil usullariga asos solgan Sharq allomasi sifatida tasvirlaydi. Mo‘minov Beruniyga oid har bir ilmiy jihatni tahlil qilishda silsilali mantiqiy fikrlash usulini qo‘llaydi. Ushbu manbada Beruniyning falsafiy-metodologik asoslari, G‘arb-Sharq ilmiy aloqalaridagi roli juda chuqur tahlil qilingan. Bunday yondashuv boshqa mualliflarda ko‘rinmaydi.

Qayumov asosan Beruniy va Ibn Sino o‘rtasidagi fikrlar uyg‘unligi, falsafiy tafakkur va shaxsiy o‘zaro munosabatlarni tadqiq qiladi. Beruniy va Ibn Sino o‘rtasida yozilgan maktublar tahlil qilinadi. Qayumov Beruniyning "al-Qonun al-Mas‘udi", Ibn Sinoning esa "al-Qonun fi-t-tibb" asarlarini ilmiy darajada solishtiradi. Muallif ularning bir-biriga qilgan e’tirozlari orqali ilmiy etikani, mulohaza madaniyatini tahlil qiladi.

Qayumov Beruniyni faqat olim emas, insoniy fazilatlari, fikr do‘sti, zamonasining axloqiy namunasi sifatida yoritadi. Bu yondashuv Mo‘minovda yoki Obidovda yo‘q. Asror Obidov – “Abu Rayhon Beruniy” Obidov Beruniy hayoti va ilmiy faoliyatini xalqchil, soddalashgan uslubda bayon qiladi. Asosan, o‘quvchi keng omma uchun tushunarli qilib yozilgan. Beruniy yashagan tarixiy sharoit, u duch kelgan qiyinchiliklar haqida hikoyaviy shaklda aytildi. Beruniyning “Hindiston”, “al-Qonun al-Mas‘udi” va “Geodeziya” asarlaridan misollar soddalashtirib keltiriladi. Ilm-fan rivojida Beruniyning umumxalq qadriyati sifatida ko‘riladi. Obidov Beruniy obrazini milliy g‘urur darajasida ko‘rsatadi. Unda Beruniy faqat olim emas, balki inson, vatanzarvar, halol va mehnatkash siymoda ifodalananadi.

Ilmiy jihatdan xulosa qilib aytganda har bir muallif Beruniyni o‘z pozitsiyasi va tarixiy-estetik qarashi asosida yoritgan. Takroriy ma’lumotlar (asarları, yutuqları, zamonası) bo‘lsa-da, ularning yondashuvi, tanlagan uslubi va talqini o‘ziga xosdir. Shuning uchun, Beruniy haqidagi bilimni chuqur va boy olish uchun aynan shu uchta muallifning bir-biridan farqli qarashlarini o‘rganish maqsadga muvofiq.

### **Xulosa**

Beruniy ilm-fanni mustaqil va tizimli ravishda o‘rganishga da’vat qilgan alloma sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan. Aziz Qayumov va Asror Obidovning yondashuvlari orqali Beruniy nafaqat olim, balki mutafakkir, insonparvar va madaniyatlararo muloqotni qadrlagan shaxs sifatida ochiladi. Qo‘srimcha manbalar esa uning tafakkuri zamonaviy fan asoschilaridan kam emasligini tasdiqlaydi.

1. Aziz Qayumovning asarida Beruniy tahlili Aziz Qayumov o‘zining "Abu Rayhon Beruniy Ibn Sino" kitobida Beruniyning shaxsiyatini chuqur ilmiy asosda yoritadi. Muallif allomani o‘z zamonasining bilimdon allomasi sifatida tasvirlab, u yashagan davr sharoitini, ilmiy maktablar bilan aloqalarini hamda arab, fors va hind manbalaridan foydalangan holda Beruniy tafakkurining kengligini ko‘rsatadi. Yangi ma’lumotlar sifatida, muallif Beruniyning o‘zbek ilmiy tafakkuridagi o‘rni, uning ilm-

fanga bo‘lgan yondashuvining tizimliligi va doimiy izlanishda bo‘lgani haqida fikr bildiradi. Qayumov fikricha, Beruniy uchun ilm-fan chegarasiz maydon bo‘lib, u bu maydonda qaysi yo‘nalishda bo‘lsa ham chuqur tadqiqot olib borgan. Muallifning xulosasi: Beruniy nafaqat o‘z davrining, balki butun insoniyat tarixining eng yirik allomalaridan biri bo‘lib, uning merosi hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Bu fikrga muallif Beruniyning yuzlab asarlari, ayniqsa "Hindiston", "Osor-ul-boqiya" asarlarining ilmiy darajasi asosida keladi.

2. Asror Obidovning yondashuvi va tahlili Asror Obidov o‘z asarida Beruniy hayoti, ilmiy faoliyati, safarları va madaniyatlararo muloqotdagi o‘rnini keng yoritadi. Obidov Beruniyni faqat ilm-fan emas, balki falsafa, tibbiyot, geologiya, tarix, matematika kabi sohalarda ham yetuk mutaxassis deb biladi. Kitobdagı yangi va takrorlanmas jihatlardan biri bu Beruniyning insoniyatga xizmat qilish g‘oyasi asosida yashagan olim sifatida tasvirlanishidir. Obidov allomaning ilmiy betaraflikni ushlab qolganini, ya’ni diniy yoki siyosiy ta’sirlarga berilmasdan faqat ilmiy haqiqatni izlaganini alohida qayd etadi. Muallifning xulosasi: Beruniy sharq uyg‘onish davri allomalari orasida alohida o‘ringa ega bo‘lib, u qadimgi sivilizatsiyalarni chuqur o‘rganish, solishtirish va ilmiy metod asosida tahlil qilish bilan farqlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Qayumov, Aziz. Abu Rayhon Beruniy / Abu Ali Ibn Sino. – Toshkent: Fan, 1987.
2. Obidov, Asror. Abu Rayhon Beruniy. – Toshkent: O‘zbekiston, 1973.
3. Beruniy, Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. 1–2 jild. – Toshkent: Fan, 1968.
4. Qayumov, Aziz. Beruniy va adabiyot. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1974.
5. Mo‘minov, Ibrohim. Beruniy i gumanitarnye nauki. – Toshkent: Fan, 1972.